

hududidagi alohida binolarda joylashgan bo'lib, barcha muassasalar nafaqat majmua aholisi uchun mavjud balki boshqa aholi uchun ham xizmat qiladi. Turar-joy majmuasi hududida turar-joy, savdo-ko'ngilochar, dam olish va sport muassasalarini alohida binoda joylashtirish eng maqbuldir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir model uchun o'ziga xos faoliyat turi taqdim etilgan bo'lib, har bir ijtimoiy guruhning ehtiyojlari va imkoniyatlariga javob beradigan va Shaharsozlik holatiga mos keladigan xizmat ko'rsatish muassasalarining ma'lum bir to'plami ishlab chiqilgan. Shuningdek, har bir model uchun turar-joy majmuasi tarkibida xizmat ko'rsatish muassasalarini joylashtirish tamoyillari keltirilgan, chunki majmua tarkibida xizmat kórsatish majmularini joylashtirish unda yashovchi aholing daromad darajasiga bevosita bog'liqdir.

#### *Foydalanilgan adabiyotar ro'yxati:*

1. *Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari H.M. UBAYDULLAEV M.M. INOG'OMOVA «Voris-nashriyot» Toshkent — 2009.*
2. *ORGANIZATSIYA OBSLUJIVANIYA V MNOGOETAJNIX JILIX KOMPLEKSAX V KRUPNEYSHEM GORODE (na primere goroda Rostova-na-Donu) Skoblitskaya Yuliya Aleksandrovna*
3. *Grigorev I.V. Tipologicheskie osobennosti formirovaniya visotníx mnogofunktionalníx jilix kompleksov : dis. ... kand. arxitekturi / I.V. Grigorev; MArxI. – M., 2003. – 232 s.*

## RIVOJLANAYOTGAN MOLIYA BOZORLARINING ZAMONAVIY HOLATI

*Erkaboyev Abdulaziz Baxromovich  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti  
Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm kafedrasi o'qituvchisi*

Ma'lumki, rivojlanayotgan moliya bozorlari (emerging markets) deganda AQSH, Yevropa va Yaponiya kabi mamlakatlarning yetuk moliya bozorlari (advanced markets) darajasiga hali yetmagan, biroq ularga yaqin bo'lgan Xitoy, Hindiston va Braziliya kabi mamlakatlarning bozorlari kiradi [1]. Ular yuqori foiz (va daromad) stavkalari va mos ravishda yuqori risklarga egaliklari bilan xarakterlanadi. Rivojlanayotgan moliya bozorlariga investitsiyalar odatdan tashqari ko'proq daromad olish va portfeli diversifikatsiya qilish maqsadida yo'naltiriladi [2]. Biroq ularning zamonaviy holati an'anaviy qarashlarni shartli ekanligini ko'rsatmoqda.

2008 yildagi Jahon moliyaviy inqirozidan keyin rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy oqimlar keskin ortdi. Yetuk bozorlardagi favqulodda noaniq bu davrda ushbu qarorlar vaqtinchalik tezkor qarordek hisoblandi va bunga asosiy sabablar:

- rivojlanayotgan moliya bozorlarida asosan bank sektori bilan bog'liq qimmatli qog'ozlar bo'lishi;
- banklarda esa davlat ulushining yuqoriligi;

- ularning moliya tizimlarida real aktivlarning ta'minoti kuchli ekanligidir.

Ya'ni, umumiy qilib aytganda, yetuk bozorlarida toksik aktivga aylangan, inqirozning asosiy sababi bo'lgan derivativlar, transhlardan xoli bo'lgan yagona sog'lom moliya tizimlari sifatida ko'rilmoxda edi.

Biroq, jahon moliya bozori barqarorlashgandan keyin ham bu mamlakatlarga franchizalar, roylati, to'g'ridan-to'g'ri va portfelli xorijiy investitsiyalar kirimi ko'payib bormoqda. Rivojlanayotgan moliya bozorlari rivojlanishi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- Yalpi kapitalizatsiya o'sishida;
- Yangi mahalliy moliya bozorlarining vujudga kelishi va mavjudlarining kengayishi;
- Listingda xorijiy va mahalliy kompaniyalar aksiyalarining hajmi va turi ortishi;
- Mahalliy indekskar joriy etilib, ularning yuqori o'sish suratiga egaligi;
- Bozorda yangi moliyaviy instrumentlar turi ko'paymoqda;
- Moliyaviy aktivlar ta'minoti shakli o'zgarishida.

Ya'ni, rivojlanayotgan moliya bozorlari ham miqdoriy, ham sifat jihatdan o'zgarmoqda. Avallari ushbu bozorlarda asosan fondlar, obligatsiyalar, imtiyozli aksiyalar savdosi yetakchilik qilar edi. So'nggi davrlarda oddiy aksiyalar hajmi ortib bormoqda. 2010 yillarda dastlab valyuta bilan bog'liq fyuchers, option va svoplar, keyinchalik boshqa turdag'i derivativlar va transhlar savdosi ham yo'lga qo'yildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar moliyaviy bozorlari ortida ko'plab omillar qatori ularning autsorsing bozoridagi ishtiroki ham ta'sir qilishi e'tiborga loyiqidir. Avallari ushbu bozorlar xom ashyoga ixtisoslashgan bo'lib, ularning eksportiga bo'lgan talab noelastikligidan katta foyda yoki zarar ko'rар edi. Bugungi kunda esa asosan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar iste'moli bo'yicha ustuvorlik mahalliy moliya bozorlarining rivojlanishga turtki bo'lmoqda.

Navbatdagi savol, rivojlanayotgan moliya bozorlariga investitsiya qilishda nimalarga e'tibor qaratish lozim ekanligida. An'anaviy moliyaviy tahlillarda qaror qabul qilishda e'tiborga loyiq jihatlar bilan birga, shuningdek, zamonaviy holat uchun o'ziga xos jihatlarni ham ilova qilamiz:

1. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sish sur'ati. Odatda, "yetib olish tamoyili"ga binoan rivojlanayotgan mamlakatlarning YaIM rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq o'sish sur'atiga ega bo'lishi kerak. Bu xorijiy investitsiyalarga keng maydon borligiga ishoradir;

2. Yuqori foiz (yoki daromad) stavkalari. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan yuqori risk uchun kompensatsiya vazifasini o'taydi. Biroq, shuni nazarda tutish kerakki, juda yuqori foiz stavkalari xususiy sektorga kiritilgan investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

3. Retsipinent valyutasining mustahkamligi. Agar investor valyutasiga nisbatan kursi tushib ketish ehtimolligi yuqori bo'lsa, forward yoki option orqali

sug'urtalash imkonini ko'rish lozim. Kutilmalar ijobiy bo'lsa, hedjlashni istisno qilgan afzal, chunki bu qo'shimcha xarajatlarga olib keladi;

4. Inflyatsiya darajasi. Retsipient valyutasining inflyatsiyasi, agar indekslanmagan bo'lsa, investorning kutilayotgan foydasini kamaytirishi ayondir. Faqat xorijiy investorlar uchun real foiz stavka, yoki investor valyutasida ham ayni inflyatsiya kuzatilgan hollar bundan mustasno;

5. Mamlakatning qarzdorligi darajasi va defolt xavfi;

6. Tashqi savdosi va kapital oqimi. Eksportni rag'batlantirish va kapital oqimini nazorat qilish uchun valyutaning qat'iy yoki suzuvchi kursiga qarab o'tmishda devalvatsita, xozirda esa interventsiya holatlari kuzatiladi;

7. Fiskal va monetar siyosati. Ishsizlikni kamaytirish uchun mamlakat fiskal va monetar siyosati foiz stavkalarga, shuningdek, valyuta kurslariga ham ta'sir ko'rsatadi;

8. Mahalliy indekslar bir yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Masalan, Hindistonda BSE SENSEX va NIFTY 50 indekslari bo'lib, ko'p hollarda aktivlar turiga qarab ularni alohida kuzatishga to'g'ri keladi;

9. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati rivojlanish darajasi. Ular mamlakat ichida quyi soliq stavkalari va boshqa imtiyozlarga egaligidan ko'plab favqulodda risklardan xoli bo'ladi;

10. Mahalliy kompaniyaning transnatsionalizatsiya darajasi uning tashqi va ichki savdosi, bo'linmalari, xodimlari, aktivlari nisbati bilan o'lchanadi. Xalqaro faoliyati kengayishi bilan kompaniyaning bir mamlakat bilan bog'liq daromad va risk nisbati ham kamayib boradi.

Albatta bu jihatlarning barchasi o'zaro bog'liq. Ularning portfel daromadiga bog'liqligini alohida faktor sifatida raqamlashtirilsa, har bir faktor o'zaro sezilarli korrelaytsiyaga ega bo'lishi va ko'p faktori modelda yuqori xatoliklarga ega baholarni berishi mumkin. Sifatli prognozlashtirish uchun esa ko'p vaqt va mablag' sarflash talab etiladi.

Bunday imkoniyat bo'limganda esa turli bevosita moliyaviy va moliyaviy bo'limgan, lekin moliyaga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarni jamlagan xalqaro indekslardan foydalanish mumkin. Masalan, GSLI va "Xalqaro raqobatbardoshlik indekslari".

GSLI indeksi o'zining tarkibiy to'rt indekslarining o'rtachasi bo'lib, moliyaviy jozibakorlik ushbu ko'rsatkichlardan biridir. Qolgan ko'rsatkichlar ham moliyaviy aktivlarni ta'minoti uchun gudvill vazifasini o'taydi.

1-jadvaldagagi ma'lumotlardan ma'lum bo'lmoqdaki, moliyaviy jozibadorlik bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Janubi-Sharqiy va Osiyo-Tinch Okeani mamlakatlari yetakchilik qilmoqda. AQSH va Buyuk Britaniya garchi ilk o'ntalikka kirsa ham ushbu ko'rsatkich bo'yicha ancha quyi natijalarga ega. "Xalqaro raqobatbardoshlik" (Global Competitiveness) indeksi esa har yili dunyo mamlakatlarini o'n ikki ko'rsatkich, jumladan, makroiqtisodiy barqarorlik, moliya tizimi, infratuzilmasi va boshqa jihatlarni birlashtirgan indeks bo'yicha baholab keladi.

2019 yili Singapur ushbu ro'yxatda birinchi o'rinda ko'rsatilgan. Postpandemik davrda ushbu indeks bo'yicha baholashda murakkablik vujudga kelmoqda [4].

## 1-Jadval

### GSLI 2021 reytingi bo'yicha eng ilg'or 10 mamlakatlar ko'rsatkichlari [3]

O'rin	Mamlakat	Moliyaviy jozibadorlik	Aholi faolligi	Biznes muhit	Raqamlashtirish darajasi
1	Hindiston	2.83	2.18	1.17	0.91
2	Xitoy	1.99	2.30	1.47	1.04
3	Malayziya	2.49	1.26	1.64	0.83
4	Indoneziya	2.78	1.26	1.34	0.83
5	Braziliya	2.37	1.69	1.32	0.67
6	Vyetnam	2.77	1.20	1.40	0.68
7	AQSH	0.40	2.39	2.03	1.15
8	Buyuk Britaniya	0.85	1.93	2.08	1.11
9	Filippin	2.82	1.32	1.15	0.67
10	Tayland	2.46	1.24	1.52	0.69

Xulosa qilib aytganda, rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlaridagi rivojlanish tendentsiyasi moliyaviy globallashuv jarayonining natijasidir. Ularning umumiyligi bilan birga ko'plab o'ziga xosliklari mavjud va ushbu mamlakatlar zamonaviy moliya bozorlarining tahlili an'anaviy qarashlardan farqli bo'lgan yangicha yondashuvlarni talab etadi. Chunki rivojlanayotgan moliya bozorlari, ayniqsa 2008 yildagi jahon moliyaviy inqirozidan keyin, ham miqdoriy, ham sifat jihatdan o'zgarmoda. An'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan tahlilga muqobil bo'lgan GSLI va Xalqaro Raqobatbardoshlik indekslar orqali tahlil qilish esa o'rganilishi lozim.

#### *Adabiyotlar:*

- Киреев А., Международная экономика. – Часть вторая. Международная макроэкономика: открытая экономика и макроэкономическое программирование. Учебное пособие для вузов. – М.: Международные отношения, 2001. – 488 с.
- Шарп У., Александр Г., Бейли Дж., Инвестиции: пер.с англ. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 1028 с.
- The 2021 Global Service Location Index. – Full Report. <https://www.kearney.com › insights>.
- The Global Competitiveness Report 2019. – Klaus Schwab, World Economic Forum.